



TALABALAR ILMIY JAMIYATINING “TA’LIM TADQIQOTGA, TADQIQOT TARAQQIYOTGA YETAKLAYDI” MAVZUSIDAGI IV ILMIY - AMALIY ANJUMANI

1

Talabalar va magistrantlarni **2025-yil 22-may** kuni Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot institutida bo’lib o’tadigan Talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etishga taklif qilamiz!

2

Barcha talabalar va magistrantlarni xabardor qilishdan mamnunmiz! Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti Respublika bo’ylab tahsil olayotgan yosh olimlardan tezislarni qabul qilishni boshladi. Siz hay’at a’zolari tomonidan baholanadigan ma’ruza bo’yicha ilmiy ishingizni himoya qilish imkoniyatiga egasiz. O’z ilmiy yo’nalishi bo’yicha eng yuqori baho olgan ishtirokchi sertifikatlar bilan taqdirlanadilar. Ilmiy tezislarni sno.ftti.uz veb-sayti orqali **3-mayga** qadar qabul qilinadi. Quyida, ilmiy tezislarni qabul qilish shartlari batafsil tavsiflangan.

3

Anjuman yo’nalishlari:

1. Dori vositalarining farmatsevtik texnologiyasi
2. Farmakologiya va klinik farmatsiya
3. Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya
4. Kimyo fanlari
5. Farmatsevtikada boshqaruv va iqtisodiyot
6. Tibbiy-biologik fanlar
7. O'zbek va chet tillari
8. Ijtimoiy fanlar

4

Konferensiya haqida

Formatlar: 1. Konferensiyada ma’ruza 2. Onlayn ma’ruza 3. Devoriy

Chop etilgan nashrlar siz uchun:

- magistraturaga qabul qilinishda;
- doktoranturaga qabul qilinishda;
- diplom loyihasini himoya qilishda;
- stipendiya va grant dasturlarida ishtirok etishda foydali bo'ladi.

5

Anjumanda ishtirok etish uchun tezislar topshirish tartib-qoidalari:

Tezislar veb-sayt (sno.ftti.uz) orqali o'zbek, rus va ingliz tillaridan birida 2024 yilning 3 –may kuni soat 20:00 ga qadar yuborilishi lozim. Yuborilgan tezislar tahrir hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi hamda faqatgina saralangan tezislar mualliflariga xabar qilinadi. Tezis mualliflari 3 nafardan yani bir nafar talaba va ikki nafar ilmiy rahbardan oshmasligi lozim, oshgan taqdirda muallif xabarisiz olib tashlanadi. Ko'rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan, konferensiya mavzusi va yo'nalishlariga mos kelmaydigan tezislar tahrir hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi. To'plamga faqat talabalar tezislar topshirishlari mumkin.

6

Belgilangan muddatdan keyin taqdim etilgan, belgilangan tartibda formatlanmagan va/yoki mavzu va yo'nalishga mos kelmaydigan tezislar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Matn tekshirilishi va xatolardan holi bo'lishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'riligi va ishning ilmiy mazmuni uchun mualliflar javobgardir.

Talablar:

1. Tezis matni MS WORD matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 yozuv o'lchami kattaligida, 1 intervalda bo'lishi va 2 bet;
2. Tezis matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm joy qoldirib rasmiylashtirilishi kerak;
3. Tezisning nomi bosh harflar bilan yoziladi;
4. Muallifning ismi, familiyasi; (doklad qiladigan muallif FISH tagiga chiziladi).

7

5. Ilmiy darajasi (ilmiy rahbar) hamda o'qish joyi (talaba);
6. Faol telefon raqami – mos ravishda 3 ta qatorda (o'ng yuqori burchak, kursivda, 14 yozuv o'lchami kattaligidagi shrift, 1 interval) ko'rsatiladi; So'ngra 1 interval qoldirib, Asosiy matn 1 intervalli qatorlarda yoziladi.
7. Annotatsiya, kalit so'zlar (tezis qaysi tilda bo'lsa shu tilda beriladi);
8. Tezisni saqlashda yo'nalish raqami va muallif familiyasi yoziladi. (Misol: 1. Xoshimjonova.docx)

8

9

Bog'lanish uchun: sno@ftti.uz | (+998) 97 4414182 | Foziljonova Malika Shuxratdjanovna

Tezislar qog'oz va elektron ko'rinishda "Tezislar to'plami" da chop etiladi.

Konferensiya dasturi plenar (20-30 daqiqa), seksiya (10 daqiqa) va poster taqdimotlarini o'z ichiga oladi.

10

Tezisini rasmiylashtirish namunasi:

ROZMARIN ASOSIDAGI PASTILKA TEXNOLOGIYASI

Xoshimjonova S.SH.1, Foziljonova M.SH.2

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 2-kurs SF-3-guruh talabasi, **e-mail:** xoshimjonova@mail.ru, тел: +998991111111.
2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, ... kafedrasida dotsenti.

11

Kalit so'zlari:

Maqsad:

Natija:

Xulosa:

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Адорно Т. В. К логике медицинских наук // Вопр. медицины. – 2020. – №10. – С. 76–86.

12

Siz quyidagi shaklni to'ldirishingiz va tezisingizni MS Word formatida (*.docx) yuklashingiz kerak:

F.I.Sh. (to'liq) _____

Tashkilot (to'liq va qisqartirilgan nomi) _____

kurs talabasi _____

Mobil telefon: _____

Elektron pochta: _____

Tezis nomi: _____